

Syujet Va Kompozitsiya

Abdullayev Xamro Dauletbaevich¹, Filologiya Fanlar Nomzodi²

Annotatsiya: Mazkur maqolada taniqli o'zbek yozuvchisi Ulug'bek Hamdamning "Isyon va itoat" hamda "Muvozanat" romanlarining syujet va kompozitsiya masalasi tadqiqot predmeti sifatida tanlangan. Maqolada kompozitsiya va syujet elementlarining joylashish tartibi, muayyan kompozitsiyaning yozuvchi badiiy niyatini amalga oshirish vositasi ekanligi borasida ilmiy mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy adabiyot, badiiy-estetik niyat, roman, kompozitsiya, syujet, poetik nutq, uslub, obraz, ekspozitsiya, tugun, yechim.

Har xil ijtimoiy davr badiiy adabiyotda o'zining umumlashgan badiiy in'kosini topadi. Bu borada roman janrining ham o'z o'rnini bor. XXI asrning boshida o'zbek romanchiligida o'z ovozigacha, o'z uslubiga ega bo'lgan adiblar safi ancha kengaydi. Ana shunday yozuvchilardan biri Ulug'bek Hamdam XX asr boshida o'ziga xos bir uslub bilan adabiyotga kirib keldi. Dastlab uning romanlari taniqli yozuvchilar, adabiyotshunoslar, kitobxonlar orasida turli bahslarga sabab bo'ldi.

Muayyan asarga baho berishda yoki biror-bir yozuvchi ijodi, dunyoqarashi haqida mulohaza yuritganda «adabiyot va jamiyat», «yozuvchi va ijtimoiy hayot» masalalarini e'tibordan soqit qilib bo'lmaydi. Bu muammolar jahon adabiyotshunosligining yetakchi nazariy masalalaridan sanaladi. Adabiyot nazariyasiga doir manbalarda adabiyotning ijtimoiy funksiyasi, yozuvchining jamiyat oldidagi burchi e'tirof etiladi. Chunki yozuvchi – jamiyatning faol a'zosi, fikri va vijdoni hamisha uyg' oq fuqarosi, jamiyat taraqqiyotidagi ilg'or kuchdir. U o'zi yashab turgan muhit voqealariga, uning taraqqiyot yo'nalishiga befarq qarab turishi mumkin emas. Kishilik jamiyatidagi muhim muammolardan biri insonning o'z atrofidagi muhitga va o'ziga munosabati muammosidir. Zero, ko'ngil – insonning uyi, ongi – muvozanat tarozisidir.

Amerikalik olimlar Rene Uellek va Ostin Uorren haqiqiy adabiyotdan ijtimoiy voqealarni aks ettiradigan adabiyotni farqlash lozimligini ta'kidlab, shunday yozadi: «Ijtimoiy adabiyot – adabiyotning bir turi, xolos, u adabiyot nazariyasida, agar adabiyot atigi hayotni, xususan, jamiyat hayotini aks quyi o'rinda turadi. Biroq, adabiyot sotsiologiya va siyosatning vazifasini bajarishga ma'sul emas. Adabiyotning burchi va majburiyatlari uning o'zida». Bunday fikr bir jihatdan o'zini oqlasa ham, boshqa qachon sof ijtimoiy, sof estetik nuqtai nazarni ifoda eta olmaydi. Adabiyotda bu ikki jihat mushtarak ko'rinishga ega bo'ladi.

Kompozitsiya san'atning barcha turlaridagi singari badiiy adabiyot uchun ham muhim ahamiyatga ega komponentlardan biridir. Kompozitsiya – yozuvchi g'oyaviy – badiiy niyatining moddiylashuvini ro'yobga chiqaradigan asosiy omil hisoblanadi. Asar tashqi va ichki qismlarining muayyan tartibda joylashtirilishi, shaklan va mazmunan kompozitsiyon yaxlitlikni hosil qiladi.

Yozuvchining badiiy-estetik niyati, kompozitsiyaning yaratilib borish jarayonida oydinlashib boradi. Demak, kompozitsiya yozuvchining estetik qarashlari bilan uyg'un holda shakllanib boradi. Har bir ijodkor o'zining falsafiy-estetik qarashlari, bilim saviyasi, hayotiy tajribasi, xayol olamining benihoya kengligi, qobiliyatining istedod sari intilishi, o'ziga xos uslubi bilan ajralib turadi. Yozuvchi Ulug'bek Hamdam ham ana shunday ajoyib uslub sohibi deb, bemalol ayta olamiz.

Ma'lumki, kompozitsiya – tanlangan hayotiy materiallarni uyg'unlashtirishga yo'naltirilgan, badiiy asarning ta'sirchanligini, emotsionalligini kuchaytiradigan, hayotdagi tasodifiy, o'tkinchi hodisalarni emas, yozuvchi nuqtai nazaridan eng muhim, eng xarakterli hodisalarni tanlab olishga yordam beradigan badiiy vositalardan biridir. Badiiy asarning kompozitsiyasi umumiy qonuniyatlar asosida yaratilsa-da, har qaysi janrning o'ziga xosligidan kelib chiquvchi alohida talablar va tamoyillar ham bo'ladi. Chunonchi, romanda ham, qissa va hikoyada ham kompozitsiya voqealarni, syujetni asarning asosiy g'oyasidan iborat markaz atrofiga ixcham va muvofiq uyishtirish mezonini asosida qurilishi kerak. Bu umumiy qonuniyat. Biroq, romanda tasvir imkoniyati uning hajmi tufayli qissaga nisbatan cheklanmagan bo'ladi. Bu o'ziga xoslik roman kompozitsiyasining ortiqcha tafsilotlardan xoli bo'lishini, ayni paytda, siqilib qolmasligini taqozo qiladi. "Asarning kompozitsiyasi, dastavval muallifning tasvir etilayotgan hayotiy materialga munosabati bilan tayin etiladi, ya'ni kompozitsiya birinchi navbatda g'oyaviy-estetik kategoriya(tushuncha)dir. Yozuvchi nuqtai nazari kompozitsiyaning hal etuvchi elementidir... Hayotda uchragan qanday kishilarni va nima sababdan tasvir markaziga qo'yishni yozuvchining hayotga qarashi, uning g'oyaviy-estetik nuqtai nazari hal etadi[1.196].

Istiqlol davrida yaratilgan o'zbek romanlarida o'ziga xos muvaffaqiyatli ijodiy urinishlar ko'zga tashlanadi. U.Hamdamning "Muvozanat", "Isyon va itoat" asarlari kompozitsion qurilishi va real voqelik munosabati nuqtai nazaridan ana shunday romanlar sirasiga kiradi. U.Hamdam XXI asr boshlarida o'zbek romanchiligida yangi obrazlar olib kirdi. Ular

¹ Berdaq Nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti O'zbekiston, Nukus Shahri

² Berdaq Nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti O'zbekiston, Nukus Shahri, Dotsent

ichida Yusuf obrazi o'zining mukammalligi bilan ajralib turadi. Yozuvchini otalar va farzandlar qarashining o'ziga xosligi, ular o'rtasidagi ziddiyat, zamondoshlarimizning ma'naviy-axloqiy qiyofasi, davr evrilishlariga bugungi ziyolining munosabati, umuman, bugungi ziyolining ma'naviy qiyofasi muammosi qiziqtiradi va u o'z asari markaziga Yusuf obrazini olib chiqadi. Muallif asar kompozitsiyasini o'ziga xos shaklda ko'rar ekan, bu bilan bir qishloq va shahar orqali butun jamiyatning muayyan manzarasini tiklashga erishadi. Bosh qahramon holati uning tafakkurida shunga mos hodisalarni yuzaga keltiradi. Voqelikni chuqur tahlil qilish esa yozuvchiga voqea va qahramonlarni turli rakursdan ko'rsatish imkonini bergan.

Kompozitsiya ham shakl, ham mazmunga tegishli hodisa bo'lib, u bu ikki hodisaning uzviy birligi sifatida maydonga keladi. Kompozitsiya, barcha adabiy-badiiy asarlarda bo'lgani kabi, roman janrida ham alohida o'rin egallaydi. Kompozitsiya asarining markaziy o'qi vazifasini o'taydi. Syujet, ekspozitsiya, tugun, yechim ana shu markaziy o'q atrofida izchillik bilan joylashadi. Natijada asarning kompozitsion yaxlitligi vujudga keladi.

Ma'lumki, roman qahramonlari qissa qahramonlariga nisbatan ko'p bo'ladi. Hikoyachi obrazi esa asardagi qahramonlarni birlashtirib turadi. Asarda hikoyachi obrazi masalasini birinchilardan bo'lib maxsus o'rgangan yirik rus olimi V.V.Vinogradov hikoyachi obrazini "asar mohiyatining jamlangan tarzda namoyon bo'lishi"[2.118] deb hisoblaydi. Hikoyachi hamisha qahramonlar orasida bo'ladi. Ularning xatti-harakatlarini kuzatadi, ularga baho beradi, xulosa chiqaradi. Bu obrazda, eng avvalo, yozuvchining kechinmalari mujassam bo'ladi. Shuningdek, roman qahramonlari o'rtasidagi o'zaro kurash psixologik aspektida hikoyachining "o'z-o'zi bilan ichki kurashini" namoyon etadi[3.10].

Hikoyachi obrazi – yozuvchining mahorat darajasini belgilovchi mezonlardan biri. Bunda yozuvchining nuqtai nazari yetakchilik qiladi. Taniqli yozuvchi Ulug'bek Hamdam romanlarida ham yozuvchi dunyoqarashi va hikoyanavis obrazining o'ziga xos uyg'unligini ko'ramiz. Yozuvchi hayotiy voqealar va ulardan olgan taassurotlari, saboqlarini qayta idrok etib, obrazli tafakkur chig'irig'idan o'tkazadi. Uning "Muvozanat" romani istiqloq davri romanchiligida alohida o'rin tutadi. Romanda mehr-oqibat va dunyoqarashlar o'rtasidagi munosabatlar o'zaro muqoyasa qilinadi. Yozuvchi hikoyachi sifatida hayotga realistlik ko'z bilan qarab kelgani boisidan undagi yovuzliklar, qing'irliklar, nohaqliq, adolatsizliklar oldida larzaga tushgan sofdil yigitni tanlaydi. Adib o'z qahramonini real voqelikning shafqatsiz haqiqati ila yuzma-yuz qoldiradida, hayot o'rtasida ulkan jarlik borligini Amirning ruhiy iztiroblari orqali tasvirlaydi. Hikoyachi ma'lum ma'noda adibning qarashlarini ifoda etsa-da, roman janridagi hikoyachi obrazi alohida ko'rinishga ega. Roman qahramonlarning ruhiy holati va xarakterini tasvirlash jarayonida yozuvchi parallel ravishda hikoyachi obrazini yarata boradi. Bu obraz voqea va qahramonlarga estetik munosabat tarzida shakllanadi. Hikoyachi obrazi ko'pincha yozuvchining ixtiyorida tashqarida vujudga keladi.

Badiiy asarni baholashda unga syujet va kompozitsiya qonunlari asosida yondoshishni maqsad qilib oldik. Adabiyotshunoslikda bu estetik kategoriyalarning nazariy va amaliy masalalarini tadqiq etuvchi olimlarning nazariy va amaliy masalalarini tadqiq etuvchi bir qator ishlar mavjud. Bular orasida E.Dobin va V.Kojinovlarning ishlari alohida ajralib turadi. Shubhasiz, badiiy adabiyotdagi estetik kategoriyalarni alohida va bir-biriga bog'liq holda o'rganish mumkin. Bu hol ijodiy jarayonning nihoyatda murakkabligi va badiiylik komponentlarining serqirraligi bilan izohlanadi. Shuning uchun tadqiqotchilar adabiy janr poetikasiga doir masalalarni o'rganishda bu komponentlarga turli aspektida yondoshishadi. Xususan, ba'zi ishlarda ular bir-biriga bog'liq holda, ayrim tadqiqotlarda ularni tipologik jihatdan o'rganish ko'zga tashlanadi.

Ushbu tadqiqotda hozirgi o'zbek romanlarining syujet tuzilishi kompozitsiya bilan bog'liq holda o'rganiladi, adabiyotshunoslikdagi mazkur masalalar xususidagi fikrlarga munosabat bildiriladi.

Syujet va kompozitsiya masalalarini o'rganuvchilarning ba'zilar ularning biri ikkinchisiga tobe kategoriya, deb qaraydilar va ularning asardagi rolini pasaytiradilar. Boshqa bir qator adabiyotshunoslar syujetni kompozitsiya tarkibiga kiruvchi unsur sifatida talqin etadilar. Yana bir xil tadqiqotchilar esa syujet va kompozitsiyani boshqa komponentlar bilan (xarakter va konflikt singfari badiiy asardagi barcha unsurlar bilan) o'zaro uzviy aloqada bo'lsa-da, muayyan nisbiy mustaqillikka ham, ega deb hisoblaydilar. Shunga ko'ra, bularning fikricha, mazkur badiiylik komponentlarini alohida ajratib olib o'rganish mumkin.

Bizningcha, adabiyotshunoslikdagi keyingi fikr haqiqatga yaqin. Chunki, har bir nuqtasida syujet unsurida mazmun qamrab olinganidek, shu mazmunning har bir nuqtasida syujetning bir unsuri-shakli ham mavjud bo'lishi turgan gap.

Maqolada syujet va kompozitsiyaning o'zaro aloqadorligi va farqli tomonlari ko'rsatiladi. Syujet kompozitsiyaga nisbatan dinamik xarakterga ega bo'lib, obrazli tasvir boshlanishi bilan rivojlanib ketadi. Zotan, u badiiy fikrning rivojlanishi, g'oyaning shakllanishidir. U voqelikning obyektiv mantiqiga ko'ra, hodisa va xarakterlarni badiiy gavdalantiradi yoki shakllantiradi. Shu bilan bir vaqtda, u kompozitsiya qonuniyatiga mos holda yaratilishi zarur. Syujetda muallif qahramonlarning munosabatlarini, ularning to'qnashuvlari, o'zaro simpatiya va antipatiyalarni, biron-bir xarakterning tashkil topish tarixini bersa, kompozitsiya ana shu materiallarning barchasini tartiblashtiradi, ularni bir markaz tevaragida to'playdi. Shunga ko'ra, u syujetni yaratuvchi, shakllantiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Umuman olganda, kompozitsiya tushunchasi syujet tushunchasiga qaraganda kengroq. Syujetda muallif o'z nutqi orqaligina ba'zi-ba'zida voqealarga qatnasha oladi. Shunda ham muallifda voqealarni bir izga solib turuvchi hikoyachilik, biron bir obrazga tavsif berish huquqi mavjud bo'ladi. Shunday syujetli asarlar borki, ularda muallif shaxsi o'zini syujet orqali emas, balki kompozitsiya vositasida namoyon qiladi.

“Isyon va itoat” romani murakkab syujetli asarlar sirasiga mansub. Yozuvchining yutug’i shundaki, u syujet voqealarini romandagi obrazlarning o’zaro aloqalari, ular orasidagi qarama-qarshiliklar, munosabatlar, biron-bir xarakterning tarixi, tashkil topib borishi hamda o’sishni ko’rsatuvchi ko’zguga aylantirib yubora olgan.

Xarakterlar mantiqi badiiy syujet yaratishning bosh oqimini tashkil etishni chuqur his etgan muallif roman bosh qahramoni Akbarning davr bilan birga bosib o’tgan yashash va kurash yo’liga alohida e’tibor berganligi tufayli asar syujetining g’oyaviy-hissiy, g’oyaviy fikriy yaxlitligi ta’minlanadi. A.P.Chexov bir yaxshi gapni aytgan: “...Qahramonlar... orasidan faqat bittasini tanlaysan... ma’lum bir holatga solib, faqat uni tasvirlaysan, ta’kidlaysan, boshqalar esa unga fon vazifasini ado etgan holda asarning barcha joylariga sochiladi. Bosh qahramon go’yo oy, boshqa obrazlar-uning tevaragidagi mayda yulduzlar...” Asar kompozitsiyasidan o’rin olgan barcha voqealar va obrazlar bosh qahramon Akbarning ongi va ruhiyatidagi o’zgarishlarni boshqarib turadi. Syujetda xarakterlararo munosabat bir-biriga zanjirsimon bog’lanib ketaveradi. Yozuvchi hayotda mavjud bo’lgan voqealarni o’z romani syujeti to’qimasiga olib kirar ekan, fabulalarning ham hayotiyiligiga e’tibor beradi. Bu o’rinda Akbar yoshligining berilishi, sir tutish usullari roman syujetining ta’sirdorligini oshirgan.

Yozuvchi kompozitsion mukammallikni yuzaga keltirishda syujet imkoniyatlari taqozo qilgan voqealardan ham unumli foydalangan.

Badiiy ijod qonuniyatidan aniqki, syujetning eng ta’sirchan-avj (kulminatsion) cho’qqilarida kurash kuchaya borib, bellashuvchi xarakterlar yorqinroq ko’zga tashlanadi. “Isyon va itoat” tafakkur oqimidan tashkil topgan asar bo’lganligi uchun, har bir syujet chizig’i yoki har qaysi hikoyaning o’zida ana shunday nuqtalar ko’zga tashlanadi. Bu xususiyat tabiiy va Akbar, Akbar va Diana munosabatlari bilan bog’liq syujet chiziqilarida, ayniqsa, ochiq ko’rinadi.

Asarning g’oyaviy-kompozitsion yaxlitligi badiiy tip darajasida yaratilgan bosh qahramon obrazi bilan bog’liqdir. Shu nuqtai nazardan U.Hamdamning “Muvozanat” romani xarakterlidir. Yozuvchi o’z romanidagi epizodlar hamda obrazlarning kompozitsiyada qanday o’rin egallashini Yusuf xakteri mantiqidan kelib chiqib belgilaydi. “Muvozanat”ni “Isyon va itoat”ga qiyoslasak, yozuvchining yaxlit kompozitsiya yaratish mahorati asardan – asarga mukammallashib borganligini kuzatish mumkin.

Roman kompozitsiyasida insof-u adolat, to’g’rilik, halollik va poklikni ro’yobga chiqarib yashash kerak, degan g’oya yetakchilik qiladi. Ana shunday usul “Isyon va itoat”da ham qo’llangan. Yozuvchi adolat va insof, hayot muvozanatini saqlab qolish va Akbarning o’zini insof, adolat hamda diyonatning timsoli sifatida ardoqlash go’yasini kompozitsiya markaziga olib chiqib, shunga nisbatan asardagi qismlar va obrazlarni joy-joyiga qo’ygan, ana shu g’oyaviy markazdan kelib chiqib, har bir voqea va har bir obrazning tasvir me’yorini belgilagan edi.

Mashhur yozuvchi Ch.Aytmatovning o’z ijodiy tajribalariga tayanib, badiiy asar syujeti va kompozitsiyasi murakkab yoki oddiy bo’lishidan qat’iy nazar, “unda hozirgi kunning murakkab muammolariga qaratilgan tafakkur bo’lsin”, degan fikrining yorqin misolini “Muvozanat”da ham ko’rish mumkin.

Yozuvchining roman syujeti va kompozitsiyasini yaratishdagi mahorati shundaki, u xalqimizning oddiy maqsadlaridan kelib chiqib, hayotni go’zallashtirishda davrning yechimini kutayotgan muammolarini diqqat markazidan qochirmaydi. Jumladan, ruhiy beqarorlik, diniy va dunyoviy munosabatlar, din va e’tiqod singari muammolari kompozitsion tugunlar tarzida topqirlik bilan tanlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – T.: O’qituvchi, 1986.
2. Vinogradov V.V. O teorii xudojestvennoy rechi. – M.: Visshaya shkola, 1971.
3. Baxtin M.M. Estetika slovesnogo tvorchestva. – M.: Iskusstvo, 1986.
4. U.Hamdam. Vatan haqida qo’shiq. Akademnashr.-Toshkent, 2014.